**XALQ DEPUTATLARI QUVASOY SHAHAR KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2024-yil 18-sentabr VI-71-68-11-167-K/24 Quvasoy shahar

**Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamgʻarmasi”dan mazkur tadbirlarga mablagʻlar ajratish toʻgʻrisida**

Ma’lumki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ–5072-sonli qarori bilan namunaviy nizom asosida tumanlar va shaharlar hokimliklari xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shuningdek, nodavlat-notijorat tashkilotlarining mas’ul xodimlaridan iborat Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish boʻyicha ishchi komissiya tarkibini tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga tasdiqlash uchun kiritishi belgilangan.

Shunga koʻra, xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining 2024-yil 14-fevraldagi VI-64-15-11-167-K/24-sonli qarori bilan Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish boʻyicha shahar ishchi komissiya tarkibi *(bundan keyingi matnlarda - ishchi komissiyasi)* tasdiqlangan.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatini Kengashining 2024-yil 30-yanvar kungi “Tashabbusli budjet jarayonlarini oʻtkazish hamda moliyalashtirish tartibi toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash toʻgʻrisida”gi KQ-666-IV-sonli qarori bilan Jamgʻarma mablagʻlari hisobidan gʻolib loyihalarni moliyalashtirish tegishli xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlari asosida amalga oshirilishi, gʻolib loyihalar e’lon qilingan kundan boshlab 7 kun muddatda mazkur loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan Ishchi komissiya tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga qaror loyihasi kiritishi belgilangan.

Bu boʻyicha Ishchi komissiya tomonidan “Tashabbusli budjet” loyihasining 2024-yil 2-mavsumi doirasida Quvasoy shahrida gʻolib deb topilgan jami 6 ta loyihalarni moliyalashtirish yuzasidan taklif kiritilgan.

Xususan, “Tashabbusli budjet” loyihasining 2024-yil 2-mavsumi doirasida Quvasoy shahrida jami 6 ta loyihalar gʻolib deb topilgan.

Jumladan, drenaj va ariq (zovur) larni tartibga keltirish bilan bogʻliq tadbirlar boʻyicha 2 ta, ichki yoʻllarni (piyodalar yoʻlakchasi, yoʻl oʻtkazgichlar) ta’mirlash bilan bogʻliq tadbirlar boʻyicha 1 ta hamda umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari boʻyicha 3 ta.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 16-sentabr kungi 23-9-19264-sonli xatiga asosan joriy yilda o‘tkazilgan “Tashabbusli budjet” loyihasining 2-mavsumi yakunlariga ko‘ra mahalladagi mavjud aholi sonidan ko‘p ovoz to‘plab g‘olib bo‘lmagan ayrim loyihalar qo‘shimcha ravishda g‘olib deb topilgan.

Shunga ko‘ra, shahardagi Hamdo‘stlik mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan **ID 48343860011** raqamli umumta’lim maktabini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari bo‘yicha 1 ta loyiha ham qo‘shimcha ravishda g‘olib deb topilgan.

Bu bo‘yicha Ishchi komissiya tomonidan ushbu *(mahalladagi mavjud aholi sonidan ko‘p ovoz to‘plab g‘olib bo‘lmagan)* loyihani ham moliyalashtirish yuzasidan taklif kiritilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatini Kengashining 2024-yil 30-yanvar kungi “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-sonli qarori ijrosi, shuningdek, Ishchi komissiya taklifini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashi,

**Q A R O R  Q I L A D I :**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatini Kengashining 2024-yil 30-yanvar kungi “Tashabbusli budjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-sonli qarorlar asosida joriy yilning **6-iyulidan 1-sentabriga qadar o‘tkazilgan uch bosqichdan** iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Tojimamatovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2. Quyidagilar:**

“Tashabbusli budjet” loyihasining 2024-yil 2-mavsumi doirasida Quvasoy shahrida jami **6 ta loyihalar g‘olib deb topilganligi;**

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 16-sentabr kungi 23-9-19264-sonli xatiga asosan “Tashabbusli budjet” loyihasining 2-mavsumi yakunlariga ko‘ra shahardagi Hamdo‘stlik mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan **(ID 48343860011 raqamli)** umumta’lim maktabini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari bo‘yicha 1 ta loyiha ham qo‘shimcha ravishda g‘olib deb topilganligi inobatga olinsin.

**3.** Ishchi komissiyaning “Tashabbusli budjet” loyihasining 2024-yil 2-mavsumi doirasida Quvasoy shahrida g‘olib deb topilgan jami 6 ta loyihalar, shuningdek, mahalladagi mavjud aholi sonidan ko‘p ovoz to‘plab g‘olib bo‘lmagan 1 ta *(Hamdo‘stlik mahalla fuqarolar yig‘ini hududida joylashgan **ID 48343860011** raqamli umumta’lim maktabini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari bo‘yicha 1 ta loyiha)* moliyalashtirish yuzasidan taklifi inobatga olinsin.

**4. Quyidagilar:**

“Tashabbusli budjet” loyihasining 2024-yil 2-mavsumi natijalariga asosan jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarnri moliyalashtirish bo‘yicha manzilli ro‘yxati **1-ilovaga muvofiq;**

“Tashabbusli budjet” jarayonining 2024-yil 2-mavsumida kelib tushgan **ID 048360414011** loyihani amalga oshirish bo‘yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar) reestri **2-ilovaga muvofiq;**

“Tashabbusli budjet” jarayonining 2024-yil 2-mavsumida kelib tushgan **ID 048347304011** loyihani amalga oshirish bo‘yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar) reestri **3-ilovaga muvofiq;**

“Tashabbusli budjet” loyihasining 2024-yil 2-mavsumi natijalariga ko‘ra aholi sonidan ko‘p ovoz to‘plaganligi hisobiga g‘olib deb topilgan loyihalar bo‘yicha jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha manzilli ro‘yxat **4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.**

**5. Belgilansinki,**

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko‘payishi yoki loyihaning o‘zgartirilishi bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaydi;
- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan shahar budjeti mablag‘lari shahar hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida jamlangan mablag‘larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqiqlanadi;
- Umumta’lim maktablarini jihozlash bo‘yicha xarid qilinadigan tovar (xizmat)lar O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2023-yil 21-dekabr kungi 03-05/3-5567-sonli xatiga ilova tarzida ko‘rsatilgan umumiy o‘lchamlar va texnik tavsiflar doirasida xarid qilinadi.

**6. Manzilli ro‘yxat asosida:**

- Shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i Sh.Tojimamatovning tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirilishini ta’minlash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag‘ manbaasi bo‘yicha (4017) “Fuqarolar tashabusi jamg‘armasi” maxsus hisob raqamlari ochilishini;
- Shahar hokimligi hisobchisi v.v.b (M.Yusupova) Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag‘lar yo‘naltirilishini;
- Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag‘larni loyiha-smeta hujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha Xalq deputatlari shahar Kengashi va shahar hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma’lumot kiritib borilishini ta’minlasin.

**7.** Shahar hokimligining Axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (Lavozimga ko‘ra) va shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi (Sh.Tojimamatov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va “g‘olib” deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni “Ochiq budjet” portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta’minlasin.

**8.** Shahar budjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag‘larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a’zolari shaxsan javobgarligi eslatib o‘tilsin.

**9.** Mazkur qaror ijrosini ta’minlash shahar iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (Sh.Tojimamatov)ga, ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Kasimov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

TO‘RAKULOV
ZAFARJON
KODIROVICH

Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining
2024-yil 18-sentabrdagi
VI-71-68-11-167-K/24 -son qaroriga
1-ilova

**Quvasoy shahrida "Tashabbusli budjet" loyihasining 2024 yil 2-mavsumi natijalariga asosan jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarnri moliyalashtirish bo‘yicha**

**MANZILLI RO‘YXAT**

*ming.so‘m*

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Quvasoy shahar jami** | | | | **xxx** | **xxx** | **21 925** | **8 158 346 000,0** | **8 158 346 000,0** | **xxx** |
| 1 | 048345486011 | Drenaj va ariq (zovur) larni tartibga keltirish bilan bog‘liq tadbirlar | Quvasoy shahar Pastki Valik MFYning aholisini hamda fermerlarini bir necha yillardan buyon qiynab kelayotgan sug‘orish uchun yangi 4 dona diametri 8 hajmli (Tik quduq) drenaj kavlash orqali muammoga yechim topish va aholini muammosini hal etish. | Pastki Valik | Qurilish-ta’mirlash | 4166 | 1 360 000 000 | 1 360 000 000 | Farg‘ona suv qurilish invest DM |
| 2 | 048346102011 | Ichki yo‘llarni (piyodalar yo‘lakchasi, yo‘l o‘tkazgichlar) ta’mirlash bilan bog‘liq tadbirlar | Pastki Valik mfy Gulshan va Chaman ko‘chalarini yangi asfaltlashtirish | Pastki Valik | Qurilish-ta’mirlash | 3795 | 1 360 000 000 | 1 360 000 000 | Farg‘ona mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati DUK |
| 3 | 048360414011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | 15- umumta’lim maktabini moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Nayman | Jihozlash | 3739 | 1 360 000 000 | 1 360 000 000 | Quvasoy shahar MMTB |
| 4 | 048353339011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va | Quvasoy shahar MMTB tasarrufidagi 19-umumiy o‘rta ta’lim maktabining ichki va tashqi | Qo‘chqorchi | Qurilish-ta’mirlash | 3653 | 1 360 000 000 | 1 360 000 000 | Farg‘ona viloyati Yagona |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | devorlarini kapital ta’mirlash. Maktab binosining ichki (karidor) yo‘laklarini zamonaviy ta’mirlash. Maktabning ichki yo‘llari, sport maydoncharini asfaltlash. Maktab hojatxonasini ta’mirlash. Maktab hovlisiga zamonaviy futbol maydonchasi qurib bitkazish. | | | | | | buyurmachi injiniring kompaniyasi |
| 5 | 048347304011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | 18- umumta’lim maktabini moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | Arsif | Jihozlash | 3348 | 1 358 346 000 | 1 358 346 000 | Quvasoy shahar MMTB |
| 6 | 048355286011 | Drenaj va ariq (zovur) larni tartibga keltirish bilan bog‘liq tadbirlar | Arsif mfydagi Sixatgoh, Bahor, Tegirmonboshi, Navruz ko‘chalaridagi xonadonlarni va fermerlarini bir necha yillardan buyon qiynab kelayotgan, Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 23 noyabr kungi PQ-20-son qarori bilan ajratilgan dehqon xo‘jaligi yerlarini sug‘orish uchun 4 dona diametri 8 hajmli (Tik quduq) DRENAJ qazish. Va muammoga yechim topish. | Arsif | Qurilish-ta’mirlash | 3224 | 1 360 000 000 | 1 360 000 000 | Farg‘ona suv qurilish invest DM |

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2024-yil 18-sentabrdagi
VI-71-68-11-167-K/24 -son qaroriga
2-ilova

**Quvasoy shahar boʻyicha oʻtkazilayotgan Tashabbusli budjet jarayonining 2024-yil 2-mavsumida kelib tushgan ID 048360414011 loyihani amalga oshirish boʻyicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar) reyestri**

**15-umumta'lim maktabi** *(ming soʻm)*

| № | Tovar (xizmat) nomi | Oʻlchov birligi | Soni | Bozor narxi | Summasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Elektron doska (kompyuter texnikasi va oʻrnatish moslamasi bilan) | Dona | 10 | 20000000 | **200 000 000** |
| 2 | Elektron doska (kompyuter texnikasi va oʻrnatish moslamasi bilan) | Dona | 5 | 20000000 | **100 000 000** |
| 3 | Javon (kitoblar, oʻquv qurollari va anjomlari uchun) | Dona | 8 | 1500000 | **12 000 000** |
| 4 | Javon (oʻqituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon) | Dona | 8 | 1300000 | **10 400 000** |
| 5 | Kiyim javoni | Dona | 8 | 1500000 | **12 000 000** |
| 6 | Sinf doskasi | Dona | 8 | 1300000 | **10 400 000** |
| 7 | Oʻqituvchi stoli | Dona | 8 | 1200000 | **9 600 000** |
| 8 | Oʻqituvchi stuli | Dona | 8 | 300000 | **2 400 000** |
| 9 | Oʻquvchi stoli №5 (1 dona stol, 2 dona stul) | Toʻplam | 24 | 1100000 | **26 400 000** |
| 10 | Oʻquvchi stoli №6 (1 dona stol, 2 dona stul) | Toʻplam | 72 | 1100000 | **79 200 000** |
| 11 | Elektron doska (kompyuter texnikasi va oʻrnatish moslamasi bilan) | Dona | 10 | 20000000 | **200 000 000** |
| 12 | Javon (kitoblar, oʻquv qurollari va anjomlari uchun) | Dona | 6 | 1500000 | **9 000 000** |
| 13 | Javon (oʻqituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon) | Dona | 6 | 1300000 | **7 800 000** |
| 14 | Kiyim javoni | Dona | 6 | 1500000 | **9 000 000** |
| 15 | Sinf doskasi | Dona | 6 | 1300000 | **7 800 000** |
| 16 | Oʻqituvchi stoli | Dona | 6 | 1200000 | **7 200 000** |
| 17 | Oʻqituvchi stuli | Dona | 6 | 300000 | **1 800 000** |
| 18 | Oʻquvchi stoli №3 (1 dona stol, 2 dona stul) | Toʻplam | 18 | 1100000 | **19 800 000** |
| 19 | Oʻquvchi stoli №4 (1 dona stol, 2 dona stul) | Toʻplam | 54 | 1100000 | **59 400 000** |
| 20 | Elektron doska (kompyuter texnikasi va oʻrnatish moslamasi bilan) | Dona | 4 | 20000000 | **80 000 000** |
| 21 | Klaviatura | Dona | 4 | 150000 | **600 000** |
| 22 | Kompyuter (personalniy) | Dona | 25 | 7000000 | **175 000 000** |
| 23 | Мышь kompyuternaya | Dona | 4 | 50000 | **200 000** |
| 24 | Printer (3v 1) | Dona | 1 | 5000000 | **5 000 000** |
| 25 | Printer rangli | Dona | 1 | 7500000 | **7 500 000** |
| 26 | Oʻqituvchi stuli | Dona | 1 | 300000 | **300 000** |
| 27 | Oʻqituvchi uchun kompyuter stoli | Dona | 1 | 1300000 | **1 300 000** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 28 | Elektron doska (kompyuter texnikasi va oʻrnatish moslamasi bilan) | Dona | 1 | 20000000 | **20 000 000** |
| 29 | Kuzatuv kameralari | Dona | 20 | 2500000 | **50 000 000** |
| 30 | Kafedra stoli (kitob tarqatish uchun) | Dona | 2 | 1500000 | **3 000 000** |
| 31 | Kitoblar uchun javon | Dona | 6 | 1500000 | **9 000 000** |
| 32 | Dazmol va dazmollash doskasi | Dona | 1 | 2000000 | **2 000 000** |
| 33 | Tikuv mashinasi (maxsus stoli bilan) | Dona | 5 | 6800000 | **34 000 000** |
| 34 | Tikuv mashinasi overlog (maxsus stoli bilan) | Dona | 2 | 6800000 | **13 600 000** |
| 35 | Charxlash dastgohi | Dona | 1 | 1600000 | **1 600 000** |
| 36 | Elektrodrel | Dona | 1 | 600000 | **600 000** |
| 37 | Ish stoli va stuli (Oʻqituvchi stoli) | Toʻplam | 2 | 1500000 | **3 000 000** |
| 38 | Kitob javoni | Dona | 2 | 1500000 | **3 000 000** |
| 39 | Kreslo (aylanuvchi) | Dona | 1 | 3000000 | **3 000 000** |
| 40 | Majlis stoli | Dona | 1 | 4000000 | **4 000 000** |
| 41 | Muzlatgich | Dona | 1 | 5000000 | **5 000 000** |
| 42 | Jurnal stoli | Dona | 1 | 1500000 | **1 500 000** |
| 43 | Psixolog stoli | Dona | 1 | 1500000 | **1 500 000** |
| 44 | Stul | Dona | 1 | 300000 | **300 000** |
| 45 | Yumshoq kreslo | Toʻplam | 1 | 3000000 | **3 000 000** |
| 46 | Ish stoli | Dona | 1 | 4000000 | **4 000 000** |
| 47 | Kabinet toʻplami | Toʻplam | 1 | 8000000 | **8 000 000** |
| 48 | Kiyim uchun javon (4 seksiyali) | Toʻplam | 5 | 1500000 | **7 500 000** |
| 49 | Tennis stoli (raketka va toʻr bilan) | Toʻplam | 2 | 3000000 | **6 000 000** |
| 50 | Birinchi tibbiy yordam stoli | Dona | 1 | 1500000 | **1 500 000** |
| 51 | Boʻy oʻlchagich | Dona | 1 | 800000 | **800 000** |
| 52 | Parda (shirma) | Dona | 1 | 1000000 | **1 000 000** |
| 53 | Tibbiyot javoni | Dona | 1 | 1500000 | **1 500 000** |
| 54 | Tibbiyot tarozisi | Dona | 1 | 1500000 | **1 500 000** |
| 55 | Tibbiy kushetka | Dona | 1 | 1500000 | **1 500 000** |
| 56 | Xolodilnik | Dona | 1 | 6000000 | **6 000 000** |
| 57 | Shifokor stoli | Dona | 1 | 1500000 | **1 500 000** |
| 58 | Kitob javoni | Dona | 2 | 1500000 | **3 000 000** |
| 59 | Oʻqituvchi stoli | Dona | 5 | 1200000 | **6 000 000** |
| 60 | Oʻqituvchi stuli | Dona | 5 | 300000 | **1 500 000** |
| 61 | Minbar | Dona | 1 | 1500000 | **1 500 000** |
| 62 | Ovoz kuchaytirgich | Toʻplam | 1 | 5000000 | **5 000 000** |
| 63 | Oʻrindiq | Dona | 30 | 3000000 | **90 000 000** |
| **Loyihaning amalga oshirish jami qiymati*** | | | | | **1 360 000 000** |

*** xozirgi kundagi bozor qiymatiga asosan olingan**

Xalq deputatlari Quvasoy shahar
Kengashining
2024-yil 18-sentabrdagi
VI-71-68-11-167-K/24 -son qaroriga
3-ilova

**Quvasoy shahar bo‘yicha o‘tkazilayotgan Tashabbusli budjet jarayonining 2024-yil 2-mavsumida kelib tushgan ID 048347304011 loyihani amalga oshirish bo‘yicha xarid qilinadigan tovar (xizmatlar) reyestri**

**18-umumta’lim maktabi** *(ming so‘m)*

| № | Tovar (xizmat) nomi | O‘lchov birligi | Soni | Bozor narxi | Summasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Sinf doskasi | Dona | 4 | 1500000 | **6 000 000** |
| 2 | Elektron doska (kompyuter texnikasi va o‘rnatish moslamasi bilan) | Dona | 2 | 20000000 | **40 000 000** |
| 3 | Javon (o‘qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon) | Dona | 4 | 1200000 | **4 800 000** |
| 4 | O‘qituvchi stoli | Dona | 2 | 1000000 | **2 000 000** |
| 5 | O‘qituvchi stuli | Dona | 2 | 300000 | **600 000** |
| 6 | Javon (o‘qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon) | Dona | 10 | 1200000 | **12 000 000** |
| 7 | Kiyim javoni | Dona | 10 | 1000000 | **10 000 000** |
| 8 | Sinf doskasi | Dona | 20 | 1500000 | **30 000 000** |
| 9 | O‘qituvchi stoli | Dona | 20 | 1200000 | **24 000 000** |
| 10 | O‘qituvchi stuli | Dona | 20 | 225000 | **4 500 000** |
| 11 | O‘quvchi stoli №5 (1 dona stol, 2 dona stul) | To‘pla m | 300 | 1200000 | **360 000 000** |
| 12 | O‘quvchi stoli №6 (1 dona stol, 2 dona stul) | To‘pla m | 100 | 1200000 | **120 000 000** |
| 13 | Elektron doska (kompyuter texnikasi va o‘rnatish moslamasi bilan) | Dona | 10 | 20000000 | **200 000 000** |
| 14 | Javon (kitoblar, o‘quv qurollari va anjomlari uchun) | Dona | 7 | 860000 | **6 020 000** |
| 15 | Javon (o‘qituvchi hujjatlari va kiyimi uchun javon) | Dona | 7 | 1000000 | **7 000 000** |
| 16 | Sinf doskasi | Dona | 10 | 1500000 | **15 000 000** |
| 17 | O‘qituvchi stoli | Dona | 7 | 789000 | **5 523 000** |
| 18 | O‘qituvchi stuli | Dona | 7 | 225000 | **1 575 000** |
| 19 | O‘quvchi stoli №3 (1 dona stol, 2 dona stul) | To‘pla m | 50 | 764000 | **38 200 000** |
| 20 | Elektron doska (kompyuter texnikasi va o‘rnatish moslamasi bilan) | Dona | 4 | 20000000 | **80 000 000** |
| 21 | Kompyuter (personalniy) | Dona | 16 | 7000000 | **112 000 000** |
| 22 | Printer (3v 1) | Dona | 1 | 5000000 | **5 000 000** |
| 23 | Printer rangli | Dona | 1 | 6500000 | **6 500 000** |
| 24 | Proektor | Dona | 1 | 2079000 | **2 079 000** |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 25 | O‘qituvchi stuli | Dona | 1 | 300000 | **300 000** |
| 26 | O‘qituvchi uchun kompyuter stoli | Dona | 1 | 1000000 | **1 000 000** |
| 27 | O‘quvchi uchun kompyuter stoli va stuli (1 dona stol, 1 dona stul) | To‘pla m | 16 | 1000000 | **16 000 000** |
| 28 | Ekran dlya proektora | Dona | 1 | 2079000 | **2 079 000** |
| 29 | Elektron doska (kompyuter texnikasi va o‘rnatish moslamasi bilan) | Dona | 1 | 20000000 | **20 000 000** |
| 30 | Kuzatuv kameralari | Dona | 20 | 2500000 | **50 000 000** |
| 31 | Kafedra stoli (kitob tarqatish uchun) | Dona | 1 | 1500000 | **1 500 000** |
| 32 | Kitoblar uchun javon | Dona | 1 | 1500000 | **1 500 000** |
| 33 | Ish stoli va stuli (O‘qituvchi stoli) | To‘pla m | 2 | 1500000 | **3 000 000** |
| 34 | Kreslo (aylanuvchi) | Dona | 1 | 2000000 | **2 000 000** |
| 35 | Majlis stoli | Dona | 1 | 1100000 | **1 100 000** |
| 36 | Go‘sht qiymalagich (elektr) | Dona | 1 | 6000000 | **6 000 000** |
| 37 | Mikser | Dona | 1 | 1700000 | **1 700 000** |
| 38 | Muzlatgich | Dona | 1 | 7000000 | **7 000 000** |
| 39 | Ovqat tarqatish liniyasi | To‘pla m | 1 | 22000000 | **22 000 000** |
| 40 | Plita (elektr yoki gazli) | Dona | 1 | 5000000 | **5 000 000** |
| 41 | Samovar (titan) | Dona | 1 | 3000000 | **3 000 000** |
| 42 | Tarozi | Dona | 1 | 800000 | **800 000** |
| 43 | To‘rt o‘rinli stol | Dona | 20 | 1300000 | **26 000 000** |
| 44 | Yumshoq kreslo | To‘pla m | 1 | 3000000 | **3 000 000** |
| 45 | Ish stoli | Dona | 1 | 3000000 | **3 000 000** |
| 46 | Kabinet to‘plami | To‘pla m | 1 | 8000000 | **8 000 000** |
| 47 | Futbol to‘pi | Dona | 4 | 80000 | **320 000** |
| 48 | Javon (jurnallar uchun) | Dona | 1 | 1000000 | **1 000 000** |
| 49 | Kitob javoni | Dona | 2 | 1000000 | **2 000 000** |
| 50 | O‘qituvchi stoli | Dona | 5 | 1000000 | **5 000 000** |
| 51 | O‘qituvchi stuli | Dona | 5 | 300000 | **1 500 000** |
| 52 | Minbar | Dona | 1 | 1500000 | **1 500 000** |
| 53 | Ovoz kuchaytirgich | To‘pla m | 1 | 5000000 | **5 000 000** |
| 54 | O‘rindiq | Dona | 29 | 2250000 | **65 250 000** |
| **Loyihaning amalga oshirish jami qiymati*** | | | | | **1 358 346 000** |

*** xozirgi kundagi bozor qiymatiga asosan olingan**

Xalq deputatlari Quvasoy shahar Kengashining
2024-yil 18-sentabrdagi
VI-71-68-11-167-K/24 -son qaroriga
4-ilova

**Quvasoy shahrida "Tashabbusli budjet" loyihasining 2024-yil 2-mavsumi natijalariga asosan aholi sonidan ko‘p ovoz to‘plaganligi hisobiga g‘olib deb topilgan loyihalar bo‘yicha jamoatchlik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirish bo‘yicha**

**MANZILLI RO‘YXAT**

*ming.so‘m*

| № | Taklif ID raqami | Taklif turkumi | Qisqacha mazmuni | Tadbirlarning manzili (joylashgan MFY nomi) | Amalga oshiriladigan tadbir turi | To‘plagan ovozlari soni | Amalga oshirishning aniqlangan qiymati | Haqiqatda ajratilgan mablag‘ | Buyurtmachi etib belgilangan tashkilot |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Quvasoy shahar jami** | | | | **xxx** | **Xxx** | **2643** | **1 360 000 000** | **1 360 000 000** | **xxx** |
| 1 | 48343860011 | Umumta’lim maktablarini ta’mirlash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish tadbirlari | 1. Maktab binosining fasad qismini zamonaviy usulda ta’mirlash.<br>2. Maktabning barcha deraza va eshiklarini zamonaviy deraza va romlarga almashtirish.<br>3. Maktabning oldi yer qismidagi eski asfaltni o'rniga yangi kafellar bilan bosish.<br>4. Maktabning stadionini ta’mirlash.<br>5. Maktab oshxonasini ta’mirlash.<br>6. Maktab kirish qismiga qorovulxona qurish.<br>7. Maktabning boshlang‘ich 13 ta sinf xonasini yog‘ochdan pol yotqizish | Hamdo‘stlik | Qurilish-ta’mirlash | 2643 | 1 360 000 000 | 1 360 000 000 | Farg‘ona viloyati Yagona buyurmachi injiniring kompaniyasi |